



## TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARINI TABIAT QO'YNIDA TASHKIL ETISH ORQALI O'QUVCHILARNING IJODKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

**Xurshid Xasanovich Ibragimov**

*Chirchq davlat pedagogika universiteti,*

*Tasviriy san'at va dizayn kafedras o'qituvchisi*

[x.ibragimov@cspi.uz](mailto:x.ibragimov@cspi.uz)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada talabalarning ijodiy fikrlashini hamda qobiliyatini va badiiy tafakkurini rivojlantirish maqsadida tasviriy san'at dars mashg'ulotlarini tabiat qo'ynida, manzarada olib borish yutuqlari xaqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, janr, portret, natyurmort, kompanovka, kompozitsiya, ritm, faktura, yorug' va soya, estetik,

Kelajak avlodni nozik did sohiblari etib tarbiyalashda tasviriy san'at fanining ahamiyati yuqori bo'lib, xalq hunarmandchiligi, xususan, amaliy bezak san'ati, badiiy hunarmandchilik, me'morchilik va dizayn san'ati sirlaridan voqif etadi. Darslarning rang-barang, mazmunli va qiziqarli tashkil etilishi o'quvchilarning badiiy tafakkurini ham o'stiradi. Shuningdek, o'quvchilarda: - san'at asarlarining ijtimoiy mohiyati va ahamiyatini anglash, idrok etish va baholash, ularga estetik munosabat bildirish ko'nikmasini rivojlantirish; - atrof-muhit, borliqdagi va san'at asarlaridagi estetik holatlarni anglashga oid bilim va malakalarini shakllantirish; - tasviriy san'atning turlari (rangtasvir, grafika va haykaltaroshlik), janrlari (portret, natyurmort, manzara), qonuniyatları (kompanovka, kompozitsiya, ritm, faktura, yorug' va soya kabilalar), ifodaviy vositalari (rang surtmasi, chiziq, faktura) bilan tanishtirish orqali ularning tasvirlash, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish; - tasviriy san'atning nazariy va amaliy asoslari haqidagi bilimini boyitish asnosida barkamol avlodni tarbiyalashning muhim komponentlari – o'g'il-qizlarda estetik did, estetik ong, badiiy tafakkur va tasviriy savodxonlikni shakllantirish va rivoj-lantirishga xizmat qiladi. Shu yo'l bilan o'quvchilarning ijodiy tafakkuri, badiiy didi, estetik hissiyotlari rivojlanib boradi. Tasviriy san'atdagi ta'limiylar va tarbiyaviy jarayon o'quvchilarda rasm chizish, me'morchilik ko'nikmalarini shakllantirish bilan birgalikda atrof-muhitdagi go'zalliklarni estetik idrok etish, uni tasviriy vositalar asosida aks ettirish bo'yicha ham nazariy bilim va malakalarini rivojlantiradi. Shuni aytib o'tish lozimki, bu maqsadlarga to'laqonli erishishda o'qituvchining darsga yondashuvi va mahorati muhim o'rinni egallaydi. Chunki tasviriy faoliyat jarayonida shakllanadigan bilim, malaka va ko'nikmalar asosan dars davomida amalga oshiriladi. "Borliqni anglash", "San'atni idrok etish", "Naturaga qarab tasvirlash" va "Kompozitsion faoliyat" yo'naliishlari bo'yicha mavzu mazmunini yoritib berish maqsadida o'qituvchilar tasviriy san'at darslarini ko'proq amaliy jihatdan tabiat qo'ynida o'tkazishlari, muzeylarga sayohat uyushtirishlari tavsiya etiladi. Bunda o'quvchilarning ona tabiatga, jonajon o'lkaga



mehr-muhabbati oshadi, milliy qadriyatlarimizni, me'moriy yodgorlik va san'at durdonalarimizni asrab-avaylash hamda qadrlashni o'rganadilar.<sup>99</sup>

S.Abdirasilov. Tasviriy san'at atamalari. T., 2002. S.Abdirasilov, N. Tolipov, N. Oripova. Rangtasvir. T., «O'zbekiston» NMIU, 2006. 14-bet. Rangtasvitda tabiat manzarasini tasvirlash qoidalari manzarani bo'yoqlar yordamida chizishdan avval qalam yordamida uning alohida qismlarini chizish o'rganib olinadi. Tasvirning mazmunli va ifodali bo'lishida manzara elementlari: daraxtlar, bulutlar, tog'lar, joyning tuzilishi, shakllari katta ahamiyatga ega. Shuning uchun manzara chizishda tabiatni sinchiklab o'rganib chiqish talab qilinadi. Daraxtlarning har bir turi o'z tuzilishiga ega. Daraxtlar barglar tuzilishi va kattaligi bilan farq qiladi. Ularning shoxlari perpendikular yoki gorizontal o'sishi mumkin. Misol uchun olma daraxti. Bir xil yoshdagi daraxtlar hammasi bir xil ko'rinishda, katta daraxtlarning shoxlari esa qalin, turlicha o'sgan bo'ladi. Daraxtlarning har bir ko'rinishi bir-biridan farq qilishi bilan birga, rangi ham boshqacha bo'ladi. Qarag'ay, archa, terak, chinor kabi daraxtlarni taqqoslab, tashqi ko'rinishining qanchalik farq qilishini tuzilishi va siluetidan bilib olish mumkin Daraxtlarning siluetli tuzilish tasviri. Har bir daraxtning xususiyatlarini o'rganib olish uchun asl nusxasidan ko'plab suratlar chizishga to'g'ri keladi. Bunday o'ziga xos xususiyatlar daraxtlarni tasvirlashning zarur shartlaridan biridir. Manzarani chizishda chiziqli va havo perspektivasi qoidalari haqidagi 29 bilimlarni aniq bilish talab etiladi. Bu ikki perspektiva turi manzarani tasvirlashda bir-birini to'ldiradi. Birgina chiziqli perspektivasi rasmda to'g'ri tasvirni bera olmaydi. Har bir narsa uzoqlashgan sari kichrayibgina qolmay, ko'rinishi, chiziqlari, yorug'ligi, rangi xiralashib ko'rinxayib boradi. Daraxtlar bizga qanchalik yaqin bo'lsa, ular shunchalik aniq va ravshan ko'rindi. Yaqindagi daraxtlar barglarining tuzilishini ham ko'ramiz. Uzoqlashganda aniq ko'rinxayib boradi, belgilari sezilmaydi. Shuning uchun ham bizga yaqin bo'lgan narsalarning aniq tuzilishlarini izchillik bilan chizamiz. Havo perspektivasi, narsalarning fazoviy o'zgarishlari hisobga olinmay bajarilgan rasmlar tekis, yassi bo'lib chiqadi. Manzarani maromida tasvirlab berish ham katta ahamiyatga ega. Manzara kunduzi, ertalab va kechqurun o'ziga xos ko'rinishga ega bo'ladi. Agarda manzara ertalab yoki kechqurun chizilsa va ular bir-biri bilan taqqoslashtirilsa, farqi yaqqol seziladi. Ertalab atrof go'yoki tutun bilan qoplangandek bo'ladi. Demak, ertalabki manzarani chizganda ort tomondagi ko'rinish biroz xiralashtirib tasvirlanadi. Oldinda joylashgan predmetlar tuzilishini biroz aniqroq qilib chizish kerak. Kechqurun esa aksincha, osmon tusida ko'pincha narsalarning tuzilishi aniqroq ko'rindi. Havo bulut bo'lgan paytda yer, undagi narsalar xiraroq, qoraroq ko'rindi. Yorug' va soyaning farqi quyoshli va bulutli kunda ham, ertalab va kunduzi ham, kechqurun va oydin kechada ham ajralib turadi. Suvdagagi akslarni tasvirlash biroz qiyinchilik tug'diradi. Narsaning suvdagi aksi har doim o'z tusidan to'qroq bo'ladi va narsaning atrofi,

<sup>99</sup> Keldiyor Xamidovich Tog'ayev (2022). TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARINI TABIAT QO'YNIDA TASHKIL TISHNING AFZALLIKLARI JIHATDAN PUXTA BILIM OLISHIGA ERISHISH VA O'QUVCHILARNING IJODKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH OMILLARIGA E'TIBOR QARATISH. Oriental Art and Culture, 3 (2), 460-464.



chiziqlari, aniqligi kamayib boradi. Suv yuzasi notinch bo'lsa, aks ettirish yanada murakkablashadi. Manzarani ifodaviy tasvirlashni o'rganishga tabiat ko'rinishini har kuni chizish mashqi orqaligina erishish mumkin. Murakkab manzara chizishni boshlashdan avval uning ma'lum bir qismini chizishni o'rganib olish kerak. Manzara ko'rinishining oddiy bo'laklari, daraxtning bir shoxi, bir daraxt tanasi, ildiz qismini chizib o'rganish lozim bo'ladi. Bunda, ayniqsa, alohida daraxtni chizishga e'tibor qaratish kerak. Osmondagи bulutlarni chizish ham maqsadga muvofiq hisoblanadi. Manzara chizish yoki uning biron-bir bo'lagini tasvirlashga oid alohida qoidalar yo'q. Manzarani tasvirlash ham boshqa narsalarning asl nusxasini chizish kabi bajariladi. Bargli daraxt Har qanday obyektning asl ko'rinishini tasvirlash eng yaxshi ko'rindigan joyni, ya'ni mazmunga ega bo'lgan joyni tanlashdan boshlanadi. Daraxtni chizish uning balandligi, kengligi, barglari bilan qoplangan holdagi umumiy ko'rinishini chizishdan boshlanadi. Shundan keyin daraxtning tanasi balandligi va qalinligiga nisbatan bargli umumiy hajmi belgilanadi va ular katta qismalarga ajratib olinadi. Shoxlarning yo'nalishlari va ular orasidagi masofalar ham belgilanib olinishi kerak. Ishni boshlashda daraxtning nisbatlari (balandligi, kengligi, tana shoxlarining nisbati)ni to'g'ri belgilash juda muhim. Alohida shoxlarini chizganda har bir bargli novdani chizib chiqish shart emas. Daraxtning umumiy hajmi, tuzilishini ko'ra bilish kerak. Daraxtning yerga va osmonga nisbatan rang-tusi, uning umumiy yoritilganligi hisobga olinib, tanasining tusi ham to'g'ri ko'rsatiladi va asosiy soyalari qo'yib chiqiladi. Uzoq va yaqin joylaridagi rang tusi muntazam taqqoslanib, iloji boricha daraxtning hajmi - fazoni, bo'shliqni ko'rsatib berishga harakat qilish lozim. Tasvirlash jarayonida eng asosiy talab, aynan shu daraxtning o'ziga xosligi, asosiy qismlarini ko'rsatish va unga ikkinchi darajalilagini bo'ysundirishdir. Aks holda tasvir mazmunsiz chiqadi. Masalan, tut daraxtini tasvirlaganda uning umumiy shakli, ko'rinishi, o'ziga xos belgilarini ko'rsata olish kerak. Har bir daraxtni o'z turiga o'xshashligini chizib ko'rsatish uchun qalam bilan ishslash malakasiga ega bo'lish lozim. Bunda chiziqlar yo'nalishlari, barglar xarakteri va umumiy hajm ko'rsatib berilishi lozim. Agarda shoxlari pastga osilib turgan bo'lsa, unda chiziqlar yuqorida pastga yo'nalgan bo'lishi kerak. O'tlar pastdan yuqoriga o'sadi, shunga ko'ra tasvirlashda shtrixlar ham vertikal yo'nalishda bo'ladi. Rangtasvida manzara ochiq havodagi manzarali kompozitsiya ishslash O'rmon yoki daraxtzordan manzarali joy tanlanadi, o'rmon, daraxtzor ichiga kirib boruvchi yo'lakcha bo'lsa, manzara yanada mazmunli bo'ladi. Shaharda xiyobonlarni ham tanlash mumkin. Joy tanlab olingandan keyin kompozitsiya mazmuniga ega bo'lgan kuzatish nuqtasini topish lozim. Kunning qaysi payti yoki qanday ob-havo sharoitida bu ko'rinishni chizish yaxshi ekanini oldindan aniqlab olish kerak. Buning uchun tasvirlashga tanlangan manzarani bir necha marta turli sharoitlarda kuzatish kerak bo'ladi. Shunda eng qiziqarli manzarani tanlab olish imkoniyati yuzaga keladi. Ana shunday yondashish bilan haqiqiy ijodiy ishslashni o'rganish mumkin. Eng yaxshi joyni tanlab olish uchun turli nuqtalardan bir necha xomaki eskizlar chiziladi. Shu bilan birga, suratning qanday bo'lishini, manzara, yer va osmonning qanday joylashishini



ham o'ylab olish kerak. Bular manzaraning kompozitsiya jihatidan mazmunli chiqishida muhim ahamiyatga ega. Surat chizish paytida xiyobonning, daraxtlarning bir tomoni yorug', ikkinchi tomoni soyadaligi biron mazmunga ega bo'ladi. Agarda manzara ko'rinishi qiziqarli bo'lsa, rasmni har qanday yorug'likda chizish mumkin. Xiyobon, daraxtlarni chizishda ularning asosiy chizig'i va baland uchlari chizig'ini belgilab olish kerak. Har bir daraxtni, butalar joylarini belgilab, ularning nisbati, hajmi, holatini hisobga olib, asosiy shaklini chizib olish kerak. Daraxtlarni tasvirlayotganda alohida barglarini, oldingi ko'rinishdagi o'tlarni alohida-alohida chizib ko'rsatish shart emas. Umumiy rang, tusni ilg'ab olishga intilish, ularni boshqa ko'rinishlar bilan taqqoslab borish lozim. Daraxtlarni chizishda ularning yoshi va turiga qarab o'ziga xos xususiyatlari, farqini ko'rsatib berish lozim. Daraxtlar va yerning osmonga nisbatan rang-tusini aniqlab, ob-havo holati va yorug'lik tusini ko'rsatish kerak. Shundan keyin oldinda va uzoqda turgan daraxtlar rang-tusining farqi, uzoqlashib borgan daraxtlar va yo'llarning xiralashib borishi ko'rsatiladi. Yerga tushuvchi soyalar, quyosh nurlarining tovlanishi ham chiziladi. Turli daraxtlarning ranglardagi farqi 32 ko'rsatiladi. Manzarada ham har qanday tasvirda bo'lgani kabi narsalarning asosiy va ikkinchi darajali bo'laklari bo'ladi. Ana shu asosiy – birinchi va ikkinchi darajali narsalarga ko'proq e'tibor berish kerak.

Ochiq havodagi manzarani ishlash uchun biror kenglikdagi turli ko'rinishlarga ega bo'lgan joyni tanlash lozim. Bu joy baland-pastliklarga ega va gorizontdan balandlikda bo'lishi mumkin. Ishni boshlashda manzarani alohida bo'laklarining kattaligi bir-biri bilan taqqoslanadi. Manzaraning asosiy xosliklariga e'tibor beriladi, joyning tekisliklari va yer yuzining tuzilishi diqqat bilan o'rganib olinadi. Yerda katta-katta balandliklar, do'ngliklar va shu kabilar mavjud. Chiziqli perspektiva qoidalariiga asosan, notejis joylardagi masofa qisqargan holda ko'rindi. Ufq chizig'iga qanchalik yaqin bo'lsa, qisqarishlar shunchalik kuchli bo'ladi. F.Vasilyev. Keksa eman daraxtining tanasi. Ochiq havodagi manzarani chizishdan avval, biron obyektning oldingi ko'rinishdagi telegraf ustuni, daraxt yoki bino tanlanib, balandligi ixtiyoriy chizib olinib, unga nisbatan taqqoslab chizish davom ettiriladi. Tabiat ko'rinishidagi ustunning bo'lakli nisbatlari rasmdagi ustunda belgilanib, manzaraning chizilishi kerak bo'lgan qismi shu asosda aniqlab olinadi. Masalan, olis ko'rinishdagi yaylov ustundan orqa tomonda bo'lib, uni ikki qismga ajratib turibdi, deylik. Agarda yaylov ustunni ikkiga bo'lib turgan bo'lsa, unda suratda ustun ikkiga bo'linib, gorizontal chiziq o'tkaziladi – bu yayloving joylashishi bo'ladi. Manzara ko'rinishining chap va o'ng tomonida joylashgan obyektlar masofalari aniqlab olinadi. Masalan, ustun balandligi uzoqda ko'rinyotgan inshoot masofasidan ikki yarim barobar katta bo'lsa, unda suratda uni ikki yarim marotaba uzoq masofada belgilash kerak. Manzaraning asosiy qismi: yer, osmon va uzoq joylari chizilgandan keyin ularninr umumiy tusi chizladi. Manzaraning katta qismidagi asosiy ranglari beriladi, oldingi ko'rinishdan boshlab mayda detallari belgilanadi. Yerning uzoqlashib boruvchi xiralashishi hamda ko'rinishlarning soya-yorug' farqlari ko'rsatiladi. Osmondag'i bulutlarni tekis oq yoki




qora ko'rinishda chizish mumkin emas. Pastdan qaraganda biz bulutning murakkab shaklini ko'ramiz. Havo perspektivasi asosida tasvirlash vaqtida ichkariga uzoqlashib borgan sari narsalarning ko'rinish chiziqlari ingichka bo'lib boradi. Ularning hajmi aniqligi kamroq seziladi. Eng yaqindagi bilan uzoqdagi obyektlarning tusini solishtirib, oldingi ko'rinishdagi soyalarni to'q qilib chizamiz. Kerakli tuzatishlar kiritilib, surat umumlashtiriladi.

O'quvchilarga tabiatdagi o'simlik, qush va hayvonlarning turlari, tuzilishi, tabiatda tarqalishi, inson hayotidagi ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar tusuntirilar ekan, ularga berilayotgan ilmlarning o'zlashtirish qobiliyati turlicha darajada bo'ladi. Ayrim o'quvchilar eshitganlarini, boshqalari ko'rganlarini yaxshi yodda saqlaydilar. Ko'pgina o'quvchilarda bir vaqtning o'zida eshitish, ko'rish va amalda bajarib, ishtirok etish, mustaqil o'qib o'rganish xotirasida uzoq saqlanish qobiliyatları ham mujassamlashgan bo'ladi. Masalan: Tabiatdagi qush va hayvonlarning dunyosi bilan yaqindan tanishtirish uchun ularning rangli rasmlaridan foydalanish va tasvirlarni namoyish etish muhim ahamiyatga egadir. (1-rasm). Rangli rasmlardan foydalanish darsni yanada samradorligini ta'minlab, o'quvchilarning tabiat, qush va hayvonlar haqida atroflicha bilim olishiga sharoit yaratadi. Shuningdek hamoyish etilgan qush yoki hayvonning tasvirini ketma-ketlikda chizish uchun ham zamin yaratadi. (2-rasm).



1-rasm



2-rasm


1-rasm. Turnalar tasviri. 2-rasm. O'quvchilarning tabiatdagi qush va hayvonlarning dunyosi, tabiiy sharoitga muvofiq holda hosil bo'lishi haqidagi bilimlarini, kuzatish, qush va hayvonlarni tanish, aniqlash ko'nikmalarini rivojlantirishga ham yorlam beradi. Masalan: Olmaxonni tasvirlash jarayonida u zarg'aldoq rangli tuk bilan qoplanganligi va tabiatan beozor, mehnatkash, chiroyli,



kichik o'rmon hayvoni ekanligini tushuntiriladi. Olmaxonlar juda serharakat hayvon bo'lishi, ular kopincha o'rmonlarda yashashi va shoxdan-shoxga sakrab yurishi haqida ma'lumotlar beriladi. Shuningdek uni tasvirlash bosqichlari ham ko'rsatiladi. (3-4-rasm).



3-rasm



4-rasm



4-rasm. Olmaxon tasviri. 3-rasm. Olmaxon ko'rinishi tasvirlash Tasviriy san'at darslarida o'quvchilarning o'zlari mustaqil tasvirlar yarata olish malakalari ham shakllantiriladi. Tasviriy san'at o'qituvchisi mashg'ulotlarini olib borishda quyidagilarga e'tibor berishi lozim: - o'quvchilarning qobiliyat darajasi va qiziqishlarini hisobga olishi: - mashg'ulotlarning o'quvchilarni yuksak badiiy va estetik ruhda tarbiyalashga qaratilgan bo'lishi: - mashg'ulotlar o'quvchilarni mustaqillikka, ijodiy faoliyatga va tashabbuskorlikka o'rgatadigan bo'lishi: - mashg'ulotlar boshqa fanlar bilan o'zaro bog'lab olib borilishi: Tasviriy san'at fani o'quvchilardan atrof muhitni his etish, undagi voqeя va hodisalni o'ziga xos jihatlarini bilishi talab etadi. Shuning uchun tasviriy san'at darslarida o'quvchilar chiziqli havo perspektivasi, yorug'soya, rangshunoslik, kompozitsiya qonunlarini yaxshi bilishlari ham kerak. Shuning bilan birga, odam, qush va hayvonlarning tuzilishi, plastik anatomiyasini haqida ham ma'lum bir ma'lumotlarga ega bo'liaslari lozim.<sup>100</sup>

Xulosa kilib shuni takidlash lozimki. Bo'lajak rassom uchun hayotni kuzatish, mavzu yuzasidan kundalik qalamchizgi va etyudlarni bajarish mashqlarni qilishga kirishsa maqsadga muvofiq ish bo'ladi. Manzara janridagi asarlar inson uchun ma'naviy oziqa beradi, uni ruhlantiradi, hayotga shodlik va quvonch bag'ishlaydi. Tasviriy san'at ijodiy jarayon - bu muallifning badiiy irodasi, ijodiy maxsuli hisoblanadi. Tasviriy san'at milliylikka asoslanadi, ayni paytda ezgulik, olijanoblik, do'stlik, hamjihatlik, ma'naviy yetuklik kabi umuminsoniy g'oyalarni targ'ib etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чоратадбирлари тўғрисида” 2017 йил 20 апрелдаги ПФ-2909 сонли қарори // Халқ сўзи, 2017 йил 20 апрель.
2. Xasanovich, I. X. DEVELOPMENT OF PUPIL'S CREATIVE ACTIVITY THROUGH ORGANIZING FINE ART CLASSES IN NATURE. FRONTLINE SOCIAL SCIENCES AND HISTORY JOURNAL., (ISSN – 2752-7018), VOLUME 03, ISSUE 05, Pages: 52-60
3. Байметов, Б. Б., Султанов, Х. Э., & Муратов, Х. Х. (2019). Психологические основы активизации творческих способностей студентов в процессе практических занятий. *Вестник науки*, 1(7 (15)), 67-71.
4. Xasanovich, I. X. DEVELOPMENT OF PUPIL'S CREATIVE ACTIVITY THROUGH ORGANIZING FINE ART CLASSES IN NATURE.
5. Султанов, Х. Э., Худайбердиев, П. У., & Собиров, С. Т. (2017). Непрерывное образование в Узбекистане как требование времени. *Молодой ученый*, (4), 385-389.

<sup>100</sup> Jamoliddin Yuldashevich Raxmatov, & Shakarova Feruza Majidovna (2022). Tasviriy san'at va tabiatshunoslik darslarida fanlararo aloqadorlikning ahamiyati. Science and Education, 3 (6), 676-680.



6. Ismatov, U. S. TEACHING TO WORK ON GRAPHIC MATERIALS IN FINE ARTS CLASSES (ON THE EXAMPLE OF GUASH PAINT). *THE JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES*, 1, 2181-138.

7. Султанов Хайтбай Эралиевич (2022). ТАСВИРИЙ САНЪАТНИНГ ЎҚУВЧИЛАР ИНТЕЛЛЕКТУАЛ-ИЖОДИЙ САЛОҲИЯТИГА ТАЪСИРИ. Современное образование (Узбекистан), (9 (118)), 50-56. doi: 10.34920/SO/VOL\_2022\_ISSUE\_9\_7

8. Eralievich, S. K. (2020). The importance of a cluster in achieving efficiency of educational quality. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 8(11).

9. Султанов, X. Э., & Муратов, X. X. (2020). ПЕДАГОГИК ТАЪЛИМ ИННОВАЦИОН КЛАСТЕРИ ОРҚАЛИ ЎҚУВ ЖАРАЁНИ ВА АМАЛИЁТНИНГ САМАРАЛИ ИНТЕГРАЦИЯСИНИ ТАЪМИНЛАШ. *ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ*, (SI-3).

10. Султанов, X. Э. (2020). Innovation technology clusters use of technology in illustration. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(04).

11. Kholmuratovich, M. K., Mardanqulovich, A. S., Ravshanovich, J. R., Sharifovna, K. U., & Shodiyevna, B. O. (2020). Methodology of improving independent learning skills of future fine art teachers (on the example of still life in colorful paintings). *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(05), 285-288.

12. Khamidovich, T. N., Nozimovich, T. N., Ibrohimovna, Y. N., Ravshanovich, J. R., & Kholmuratovich, M. K. (2019). DEVELOPMENT OF STUDENTS'CREATIVE ABILITIES THROUGH TEACHING" LANDSCAPE PAINTING. *Journal of Critical Reviews*, 7(6), 2020.

13. Muratov, H. (2021). The importance of organization and management independent education in the learning process. *Збірник наукових праць Л'ОГОС*.

14. Holmuratovich, M. K. (2019). Implementation of independent educational activities of students. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).

15. Muratov, K. K., & Tadjieva, F. M. (2021). Issues of Improving the Technology of Organization and Management of Independent Learning Activities of Students in the Fine Arts. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 8(11), 521-525.

16. Xusan Xolmuratovich Muratov (2021). ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI VA MULTIMEDIALI ELEKTRON O'QITISH VOSITALARI ORQALI TA'LIM MUHITINING RIVOJLANISHI. Academic research in educational sciences, 2 (1), 1130-1136. doi: 10.24411/2181-1385-2021-00150

17. Байметов, Б. Б., Султанов, X. Э., Муратов, X. X., & Сабиров, С. Т. (2018). Научно-теоретические аспекты формирования композиционных способностей у студентов на занятиях по живописи. In *Современная научная мысль* (pp. 83-94).

18. Baymetov, B. B., & Muratov, K. K. (2020). Self Sketches as a Tool in the Professional Training of a Future Artist-Teacher. *Solid State Technology*, 224-231.



19. Baymetov, B. B., & Ismatov, U. S. Pedagogika oliy ta'lif muassasalarida talabalarini bosh namunasini tasvirlashga o'rgatish orqali tyexnik mahoratlarini takomillashtirish Science and education journal. 2020/8.
20. Shuhratovich, I. U., Eraliyevich, S. X., & Tursunmurotovich, S. S. Illustration and the Influence of Illustrator on Children's Understanding of Fairy Tales and Works of Art in Books. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation ISSN*, 1475-7193.
21. Talipov, N., & Talipov, N. (2021). CREATIVE TECHNOLOGIES FOR THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVE ACTIVITY THROUGH ART EDUCATION. *Збірник наукових праць ЛОГОС*. <https://doi.org/10.36074/logos-19.03.2021.v3.12>
22. Талипов , Н., & Талипов, Н. (2021). ТАЛАБАЛАРНИ БАДИЙ ТАЪЛИМ ОРҚАЛИ ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ. *Збірник наукових праць ЛОГОС*. <https://doi.org/10.36074/logos-09.04.2021.v2.50>
23. Sh.B. Nazirbekova. Mportant and Specific Aspects of the Fine Arts in the Practice of Plain Air // European Journal of Arts, 2023, №1. – С.15–18. DOI: <https://doi.org/10.29013/EJA-23-1-15-18>
24. Абдирасилов Сунатулла Файзуллаевич, & Назирбекова Шахноза Ботировна (2017). Компьютеризация и информатизация художественно-практические занятия в обучении студентов. Инновации в науке, (12 (73)), 21-
25. Kodirov Mahmudjon Mukhammadjonovich, (2022). FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF TEACHERS OF FUTURE TECHNOLOGICAL EDUCATION. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 3(10), 34–41. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-03-10-06>
26. R.R. Jabbarov. Patterns in applied art of the uzbek folk // European Journal of Arts, 2023, №1. – С.11–14. DOI: <https://doi.org/10.29013/EJA-23-1-11-14>
27. Jabbarov, R. (2023). Zamonaviy tasviriy san'atda qalam tasvirning o'rni qanchalik muhim. Global Dunyoda Ilm-Fan Va ta'limgangi Nnovatsion Rivojlanishning Zamonaviy Trendlari, 1(3), 228–232. <https://doi.org/10.47689/ STARS.university-pp228-232>
28. Jabbarov, R., & Rasulov, M. (2021). FURTHER FORMATION OF STUDENTS' CREATIVE ABILITIES BY DRAWING LANDSCAPES IN PAINTING. *Збірник наукових праць ЛОГОС*. <https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.09>
29. Nazirbekova, S., Talipov, N., & Jabbarov, R. (2019). Described the Educational, Scientific, and Educational Institutions of the Miniature. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 15(2), 364-367. doi:<http://dx.doi.org/10.52155/ijpsat.v15.2.1192>